

NUTQDA LEKSEMALARNING BIRIKUV XUSUSIYATLARINI O'QITISHDA KONSEPTUAL JADVALLAR VA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH

O'ktamova Saodat Abdumalik qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20569812>

Anotatsiya: Ushbu maqolada nutqda leksemalardan foydalanish jarayonida konseptual jadvallar va turli xil nostandart testlardan foydalanish ularning modulini tuzish korib chiqiladi. Leksemalarni qo'llash jarayonida talabarni o'zlashtirish jarayonini testlar va jadavlarning ko'rinishlari orqali tushunchalar olib boriladi.

Kalit so'zlar: leksema, so'z birikma, jadval, test, innovatsiya, texnologiya.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Hukumatning tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarining eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Farzandlarimiz uchu ish joylari yaratish, ularni hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda”. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni hayotga tatbiq etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar o'z navbatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib o'quv-tarbiya jarayonini samaradorligi va sifatini oshirish talablarini qo'yimoqda.

Hozirgi kunda O'zbek tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, ularning leksik boyligini oshirish va so'z birikmalarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Nutqda leksemalarning birikuv xususiyatlari tilning muhim qonuniyatlaridan bo'lib, so'zlarning bir-biri bilan qanday va qaysi chegaralarda birika olishini belgilaydi. Bu hodisa tilshunoslikda valentlik yoki birikuvchanlik deb yuritiladi. Leksemalarning birikuv xususiyatlarini o'rgatish jarayonida an'anaviy usullar yonida zamonaviy, innovatsion yondashuvlardan foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda. Kontseptual va nostandart tesrlar ana shunday samarali didaktik vositalardan hisoblanadi. Kontseptual jadvallar so'zlar o'rtasidagi ma'no, vazifa va munosabatlarni tizimli ko'rsatishga, nostandart jadvallar esa vizual va ijodiy tafakkurni faollashtirish orqali o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Leksemalarning birikuv xususiyatlari — bu so'zlarning nutq jarayonida bir-biri bilan qanday va qaysi chegaralarda birika olishini ifodalovchi til hodisasidir. Tilshunoslikda bu hodisa valentlik, birikuvchanlik, kombinatorika yoki kollokaliya kabi atamalar bilan yuritiladi. Har bir leksema o'ziga xos birikuv imkoniyatlariga ega bo'lib, bu uning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Leksemalarning birikuv xususiyatlari to'rt asosiy turga bo'linadi:

1. Semantik birikuvchanlik — bu so'zlarning ma'nosiga bog'liq holda birikishi. Semantik birikuvchanlik leksemalarning leksik-semantik sohalariga bog'liq. Masalan, "shirin" sifati asosan ta'm bildiruvchi otlar ("shirin olma", "shirin choy") yoki ko'chma ma'noda ma'naviy-his-tuyg'u bildiruvchi otlar ("shirin xotira", "shirin so'z") bilan birikadi. Biroq "shirin temir", "shirin tosh" kabi birikmalar semantik jihatdan nomuvofiq hisoblanadi, chunki "shirin" sifatining asosiy sema komponentlari "temir" va "tosh" otlarining sema tarkibi bilan mos kelmaydi. Semantik

birikuvchanlikning cheklanishi ko'pincha leksemalarning komponentli tahlili orqali aniqlanadi. Har bir so'zning ma'nosi bir qator semalardan (ma'no komponentlaridan) tashkil topadi va so'zlar birikish jarayonida bu semalar o'zaro muvofiqlik talabini qondirishi kerak.

Masalan: "ochmoq" fe'li: eshik ochmoq, kitob ochmoq, yo'l ochmoq (semantik chegaralar keng)

"qichqirmoq" fe'li: odam qichqiradi (semantik cheklov: jonli mavjudot).

2. Grammatik birikuvchanlik — so'zlarning grammatik shakllari va vazifalariga asoslangan birikishi. Grammatik birikuvchanlik tilning morfologik va sintaktik tizimi bilan belgilanadi. O'zbek tilida grammatik birikuvchanlik quyidagi asosiy modellarga ega:

Sifat + ot: yangi uy, katta kitob, go'zal bog'

Fe'l + ot: kitob o'qimoq, ish qilmoq, gap gapirmoq

Son + ot: uch talaba, besh kitob, o'n uy

Ot + ot (qaratqich kelishigida): o'quvchining kitobi, do'stning uyi

Ravishdosh + fe'l: tez yugurdi, sekin yurdi, baland sakradi.

3. Leksik birikuvchanlik — til odatiga ko'ra shakllangan, barqaror birikishlar. Leksik birikuvchanlik frazeologik birikmalarga yaqin turadi, lekin undan farq qiladi. Leksik birikuvchanlikda so'zlar grammatik jihatdan erkin bo'lsa-da, til amaliyotida faqat ma'lum bir shakl qo'llanadi:

qaror qabul qilmoq (qaror olmoq emas)

e'tibor qaratmoq (e'tibor bermoq ham mumkin, lekin rasmiy uslubda "qaratmoq" afzalroq) xulosa chiqarmoq (xulosa olmoq yoki xulosa qilmoq emas).

4. Uslubiy birikuvchanlik — so'zlarning uslubiy rangi va qo'llanish sohasiga bog'liq birikishi. O'zbek tilida uslubiy jihatdan farqlangan leksik qatlamlar mavjud: rasmiy-uslubiy, ilmiy, publitsistik, badiiy, so'zlashuv uslublari. Har bir uslubga xos so'zlar bir-biri bilan birikishda uslubiy uyg'unlikni ta'minlashi kerak:

1. Leksemalarning birikuvi.

Ma'no	Birikuvchanlik namunalari
Jism holati (↔ yumshoq)	qattiq tosh, qattiq o'rindiq
Kuch-qudrat	qattiq zarba, qattiq shamol
Shiddatli, kuchli	qattiq sovuq, qattiq issiq
Qat'iy, keskin	qattiq so'z, qattiq jazo
Mard, botir	qattiq yigit, qattiq jon

Kontseptual jadval (conceptual table) — bilimlarni tizimlashtirish, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatish va tahliliy tafakkurni rivojlantirish uchun mo'ljallangan maxsus tuzilgan didaktik vosita. Ta'lim jarayonida o'quvchining tafakkurini rivojlantirish psixologik yondashuvlarga asoslanadi [10;11]. Kontseptual jadvallar pedagogika va psixologiyada "kognitiv grafikalar" yoki "tushunchaviy-ma'lumot jadvallari" sifatida ham taniladi.

2. Sifatlarining birikuvchanligi

Sifat	To'g'ri ma'noda	Ko'chma ma'noda	Birikmaydigan so'zlar

	birikuvchanlik	birikuvchanlik	
shirin	shirin olma, shirin choy, shirin shirinlik	shirin so‘z, shirin xotira, shirin uyqu	✗ shirin tosh, ✗ shirin temir
achchiq	achchiq qalampir, achchiq dori	achchiq haqiqat, achchiq taqdir	✗ achchiq kitob, ✗ achchiq stol

Nostandart testlar— an’anaviy “qatorlar va ustunlar” tuzilmasidan chiqib, g’ayritabiiy, ijodiy va interaktiv shaklda tuzilgan didaktik vositalar. Ular vizual-fazoviy tafakkurni faollashtirish, qiziqish uyg’otish va o’quv materialini ko’ngil ochadigan tarzda o’zlashtirishga xizmat qiladi.

1. To’g’ri javoblarni aniqlang va mos ravishda joylashtirib chiqing?

1) Halimaning uyi; 2) qaror qilmoq; 3) kitob o’qimoq; 4) ko’ngli yarim; 5) dili yara; 6) talaba gapirdi; 7) uf tortmoq; 8) Birlashgan Millatlar Tashkiloti; 9) olma va anor; 10) dala malikasi; 11) kitobxonlikdan; 12) daftar, ruchka, qalam; 13) yaxshi odam; 14) temir qoshiq; 15) Kampirtepa.

<i>Bir tomonlama birikish</i>	<i>ikki tomonlama birikish</i>	<i>teng birikish</i>

Javob:

<i>Bir tomonlama birikish</i>	<i>ikki tomonlama birikish</i>	<i>teng birikish</i>
3, 13, 14	1, 6	9, 12

Xulosa va tavsiyalar

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta’limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog’liq. Bugungi kunda ta’lim samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri ekan, globallashtirish jarayonida, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko’lamli axborotlar oqimining kirib kelishi ta’lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirilib borilishini ko’zda tutadi. Ontseptual jadvallar leksemalarning birikuv xususiyatlarini tizimli, aniq va mantiqiy tartibda taqdim etish imkoniyatini beradi. Taqqoslash, klassifikatsiya, analitik va matritsa jadvallari o’quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantirish, bilimlarni tizimlashtirish va xotirda qoldirishni osonlashtirish uchun samarali vositalardir. Nostandart jadvallar — klaster, Venn diagrammasi, assotsiativ xaritalar, rangli va bosqichli jadvallar — o’quvchilarning ijodiy va vizual-fazoviy tafakkurini faollashtiradi, motivatsiyani oshiradi va o’quv materialini qiziqarli va tushunarli qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G’ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili. — Toshkent: O’zbekiston, 2010.
2. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. — Toshkent: O’qituvchi, 1978.
3. Dadaboyev H. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 2008.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tili nazariy grammatikasi. — Toshkent: Fan, 2010.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. — Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002

6. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, turli nashrlar 2022..
7. Nurmon Mahmudov. O'zbek tili nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy ishlari 2020.